

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 374 sahifa.

2025-yil, 10-oktyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидрахаловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLİYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURSLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
KORPORATIV BOSHQARUVDA LEADERSHIP 4.0 TAMOYILLARINI JORIY ETISH SAMARADORLIKNI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	349
Ismailov Allayor Rashidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	355
Yusupov Farxod Adamboyevich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI O'RNI VA UNI RIVOJLANTIRISHNI USTUVOR YO'NALISHLARI	359
Abdullaeva Nilufar Javdat qizi	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOLISHTIRMA EKONOMETRIK MODELLARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	363
Saatmurotov Shohrux Zafar o'g'li	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	369
Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich	



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR

Abdurazaqov Jasur Abdunasimovich

“O'zR IIV Birlashgan tahririyati” DM bosh hisobchisi

jabdurazzoqov@bk.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston sug'urta bozori ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Milliy sug'urta bozori ko'rsatkichlari Rossiya va Qog'og'iston sug'urta bozorlari ko'rstakichlari bilan taqqoslangan va ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliya bozori, moliya tizimi, sug'urta tashkiloti, sug'urta bozori, sug'urta xizmatlarining diversifikatsiyasi, sug'urta agentlari, sug'urta to'lovi, sug'urta mukofati, sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali.

Abstract: This article analyzes the indicators of the insurance market of Uzbekistan. The indicators of the national insurance market are compared with the indicators of the insurance markets of Russia and Kazakhstan, and scientific proposals and recommendations are developed.

Key words: financial market, financial system, insurance organization, insurance market, diversification of insurance services, insurance agents, insurance payment, insurance premium, total authorized capital of insurance organizations.

Аннотация: В данной статье анализируются показатели страхового рынка Узбекистана. Проводится сравнение показателей национального страхового рынка с показателями страховых рынков России и Казахстана, разрабатываются научные предложения и рекомендации.

Ключевые слова: финансовый рынок, финансовая система, страховая организация, страховой рынок, диверсификация страховых услуг, страховые агенты, страховой взнос, страховая премия, совокупный уставный капитал страховых организаций.

KIRISH

Sug'urta bozori har qanday mamlakat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. U iqtisodiyotdagi risklarni boshqarish, aholining va biznesning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, shuningdek investitsion oqimlarni safarbar etishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sug'urta bozorida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Davlat tomonidan olib borilayotgan islohotlar, yangi kompaniyalar faoliyati va xalqaro tajribani joriy etish bu jarayonni tezlashtirmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekiston sug'urta bozorining rivojlanish tendensiyalari va istiqbolli imkoniyatlari tahlil qilindi. Milliy sug'urta bozorining ko'rsatkichlari Rossiya va Qozog'iston tajribasi bilan taqqoslanib, mavjud muammolar aniqlanadi hamda kelgusida sohani yanada rivojlantirish uchun ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliya bozorini xususan sug'urta bozorini takomillashtirish bo'yicha ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar ilmiy ish olib borgan bo'lib, biz maqolamizni tayyorlashda ko'plab olimlarni ilmiy qarashlarini tahlil qildik.

Jumladan, J.F.Outreville'ning "Life insurance markets in developing countries" maqolasi rivojlanayotgan mamlakatlarda hayot sug'urtasi bozorining rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qiladi. Muallifning asosiy xulosalariga ko'ra, hayot sug'urtasi mukofotlari hajmi mamlakatning moliyaviy rivojlanish darajasi va sug'urta bozorining tuzilishi bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqotda shuningdek, iqtisodiy o'sish, moliya institutlarining chuqurlashuvi, real daromad darajasi va aholining demografik ko'rsatkichlari hayot sug'urtasi talabini oshiruvchi asosiy omillar sifatida ko'rsatilgan.¹

J.F.Outreville shuni ta'kidlaydiki, rivojlanayotgan mamlakatlarda sug'urta bozorining sustligi ko'pincha moliya tizimidagi cheklovlar, institutsional zaifliklar va aholining sug'urta madaniyati pastligi bilan bog'liq. Maqolada

¹ Outreville J. F. Life insurance markets in developing countries //Journal of risk and insurance. – 1996. – C. 263-278.



keltirilishicha, hayot sug'urtasining rivojlanishi nafaqat moliyaviy xizmatlarni kengaytirish, balki kapital bozorini chuqurlashtirish va uzoq muddatli jamg'armalarni shakllantirish orqali iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shadi. Shu sababli, sug'urta bozorini rag'batlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida ko'rilishi lozim.

J. Mulhern, S. Manske va R. Mancuso (2023) tomonidan yozilgan "USA: A regulatory overview of the world's largest insurance market" maqolasi AQSh sug'urta bozorining huquqiy tartibga solinish xususiyatlarini tahlil qiladi. Xulosalarga ko'ra, AQSh sug'urta bozori dunyodagi eng yirik va diversifikatsiyalashgan tizim bo'lib, uning boshqaruvi asosan shtatlar darajasida amalga oshiriladi. Federal darajada esa iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, moliyaviy barqarorlik va xalqaro standartlarga muvofiqlik nazorat qilinadi. Mualliflar ta'kidlaganidek, "non-admitted market" noyob va yuqori xavfli sug'urta mahsulotlarini qamrab olib, innovatsion yechimlarni taqdim etadi. Shu tariqa, AQSh sug'urta bozorining asosiy xususiyati - tartibga solishdagi ko'p pog'onali tizim, moslashuvchanlik va xalqaro moliya tizimiga faol integratsiya ekanligi qayd etilgan.²

U.R.Xalikovning 2025 yilda chop etilgan "O'zbekiston sug'urta bozori muammolari va rivojlanish yo'nalishlari" maqolasida mamlakat sug'urta bozorida mavjud tuzilmaviy muammolarni tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan. Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini baholash, soliq imtiyozlari va huquqiy islohotlarning ta'sirini o'rganish hamda bozorni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash nazarda tutilgan. O'zbekiston sug'urta bozorini barqaror rivojlantirish uchun soliq siyosatida maqbullik, innovatsion mahsulotlarni joriy etish, raqobat muhitini kuchaytirish va aholi o'rtasida sug'urta madaniyatini oshirish zarurligi qayd etilgan.³

O.T.Yuldashevning 2025-yilda chop etilgan "O'zbekistonda sug'urta bozori" maqolasida mamlakat sug'urta bozorining hozirgi holati, mavjud muammolari va istiqbollari tahlil qilingan. Xulosalarga ko'ra, sohada hali ham aholining sug'urtaga bo'lgan ishonchi past, moliyaviy barqarorlik yetarli darajada shakllanmagan hamda sug'urta xizmatlarining diversifikatsiyasi sust rivojlanmoqda. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni joriy etish, hayot sug'urtasi segmentini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb etish bozorining raqobatbardoshligini oshiradi. Muallif takliflariga ko'ra, sug'urta sohasida soliq va huquqiy imtiyozlarni kuchaytirish, innovatsion mahsulotlarni rivojlantirish, aholiga keng tushuntirish ishlari olib borish hamda davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash zarur.⁴

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada muallif tomonidan ilmiy abstraksiyalash, qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakat moliya bozorini takomillashuvi, korporativ moliya hamda shaxsiy moliya sohalarini rivojlanishiga olib keladi. Aholini bo'sh turgan pul mablag'larini moliya instrumentlari orqali moliya bozoriga yo'naltirishning yangi zamonaviy metodlaridan keng foydalanish amaliyotini tashkil etish va moliya bozori ishtirokchilarini naflanish darajasini yuqorilash muhim iqtisodiy strategiya hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra 2025-yilning 1-iyul holatiga O'zbekistonda doimiy aholi soni qariyb 37 859 698 kishini tashkil etgan.⁵ Shundan mehnatga layoqatli aholi soni 21 039 200 kishini tashkil etmoqda, demak O'zbekistonda moliya bozori ishtirokchisi bo'lishi mumkin bo'lgan aholi 21 million atrofida ekanligi va ularni moliya bozorida ishtirok etuvchi potensial sub'yektlar ekanligini hisobga olib mamlakat sug'urta bozoridagi holatni ayrim jihatlarini tahlil qilamiz.

O'zbekiston sug'urta bozorida 2024-yil yanvar-iyun oylarida 35 ta sug'urta tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lib, 2025-yil yanvar-iyun holatiga 34 tani tashkil etgan. Hayotni sug'urta qilish sohasida 1 ta sug'urta tashkiloti ko'paygan va umumiy sug'urta sohasida 2 ta sug'urta tashkiloti kamaygan. Bu jarayon tarkibiy o'zgarishlarni ko'rsatib, hayotni sug'urta qilish sohasida bir tashkilotga ko'payish va umumiy sug'urta sohasida ikkita tashkilotga kamayish bilan tavsiflandi.


Sug'urta tashkilotlarining umumiy ustav kapitali 2024-yil yanvar-iyun holatiga 2, 347 trln so'mni tashkil etib, 2025-yil yanvar-iyun holatiga 3, 129 trln so'mni tashkil etgan. Bu holat kapitalizatsiyaning kuchayishi va moliyaviy barqarorlikning ortganidan dalolat beradi.

2 Mulhern J., Manske S., Mancuso R. USA: A regulatory overview of the world's largest insurance market //Research Handbook on International Insurance Law and Regulation. – Edward Elgar Publishing, 2023. – С. 708-727.

3 Халиков У. Р. ЎЗБЕКИСТОН СУҒУРТА БОЗОРИ МУАММОЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ ЙУНАЛИШЛАРИ //Scientific Research and Experimental Development. – 2025. – №. 10.

4 Yuldashev O. T. et al. O 'ZBEKISTONDA SUG 'URTA BOZORI //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 63. – №. 3. – С. 200-208.

5 <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>




1-diagramma

2024-yilning birinchi yarmida umumiy mukofotlar hajmi 4,3 trln so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilda bu ko'rsatkich 6,2 trln so'mga yetgan. Bu o'sish 44% dan ziyodni tashkil etib, aholi va biznesning sug'urta xizmatlariga talabining ortganini anglatadi. Tarkibiy jihatdan, ixtiyoriy sug'urta 87% ulush bilan yetakchi bo'lib qolgan, majburiy sug'urta esa 7% atrofida saqlangan. Hayotni sug'urta qilish sohasida ulush 2% dan 6% ga o'sishi bozorda diversifikatsiya jarayonlari jadallashganidan dalolat beradi.

2024-yilda 1,1 trln so'mlik to'lov amalga oshirilgan bo'lsa, 2025 yilda bu ko'rsatkich 1,2 trln so'mga yetgan. Ixtiyoriy sug'urtaning ulushi 79% ni tashkil etgan holda ustuvorligini saqlab qolgan, majburiy sug'urta ulushi 15-16% atrofida, hayotni sug'urta qilish esa 5-6% darajada bo'lgan. Bu holat bozorda barqarorlik mavjudligini, kompaniyalar to'lov qobiliyatini ta'minlab kelayotganini ko'rsatadi.

Sug'urta mukofotlari hajmida sezilarli o'sish bozorning kengayib borayotganini anglatadi. Ixtiyoriy sug'urta segmenti asosiy drayver sifatida ustuvorlikka ega. Hayotni sug'urta qilish ulushining ortishi bozorda uzoq muddatli moliyaviy instrumentlarga talabning kuchayganini ifoda etadi.

Sug'urta to'lovlari mukofotlarga nisbatan past sur'atda o'smoqda, bu esa kompaniyalar uchun yuqori rentabellik va barqaror moliyaviy imkoniyatlarni ta'minlaydi.



2-diagramma



O'zbekiston sug'urta bozorida sug'urta brokerlari soni 10 tadan 11 tagacha ko'payib, 10% o'sish qayd etilgan. Shu bilan birga, aktuariylar soni ham 5 tadan 7 tagacha o'sib, 40% ko'paygan. Bu professional kadrlar salohiyatini oshirish va bozorni xalqaro standartlarga yaqinlashtirish yo'nalishidagi ijobiy tendensiya hisoblanadi.


Biroq sug'urta agentlari soni 4 161 tadan 3 442 taga tushib, 17,3% kamaygan. Xususan, ular orasidagi yuridik shaxslar ulushi ham 1 449 tadan 1 424 taga kamaygan. Bu bozorda tarkibiy o'zgarishlar va agentlik tizimida samaradorlikka e'tibor kuchayishi bilan bog'liq. Shuningdek sug'urta agentlari sonini kamayishi sug'urta tashkiloti va sug'urtalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarni yanada shaffoflanishiga sabab bo'ladi.

Shu bilan birga, to'lovlarni kafolatlash jamg'armasi a'zolari bo'lgan sug'urta tashkilotlari soni 25 ta darajada o'zgarishsiz qolgani bozorning barqarorligini ta'minlab turganini ko'rsatadi.

O'zbekiston sug'urta bozorida 2024-2025-yillar orasida sug'urta tashkilotlarining investisiya portfelini sezilarli darajada o'sgan. Jami investisiyalar 36,5% ga oshib, 8,34 trln so'mni tashkil etdi. Tarkibiy jihatdan, depozitlar hali ham eng yirik ulushni (60,9%) egallab turibdi. Biroq bu ko'rsatkich rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qaraganda ancha yuqori, chunki Yevropada sug'urta kompaniyalari mablag'larning asosiy qismini (40–50%) qimmatli qog'ozlar va infratuzilma obligatsiyalariga yo'naltiradi. Bu ularning investisiya oqimlarini uzoq muddatli va yuqori daromadli yo'nalishlarga qaratayotganini anglatadi.

Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan mablag'lar 7,8% ga o'sib, 16,7% ulushni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich AQSH va Yaponiya kabi mamlakatlarda 40-60% darajada bo'lib, O'zbekistonda ushbu segmentni kengaytirish zarur. Shu bilan birga, ko'chmas mulkka investisiyalar 160,4% ga o'sib, ulushi 18,7% ga yetgani ijobiy holat hisoblanadi, chunki bu bozorni diversifikatsiya qiladi.

E'tiborli jihat shundaki, zayomlar ulushi 34,5% ga qisqargan. Bu moliyaviy barqarorlik nuqtai nazaridan to'g'ri qaror bo'lib, chunki rivojlangan mamlakatlar tajribasida zayomlar odatda sug'urta kompaniyalari portfelida cheklangan ulushga ega bo'ladi.



3-diagramma

O'zbekiston sug'urta bozorini 2024-2025 yillar ma'lumotlariga ko'ra umumiy sug'urta mukofotlari 46% ga oshgan va 6,23 trln so'mga yetgan. Bu ko'rsatkich sug'urta xizmatlariga talab ortib borayotganini anglatadi. Shu bilan birga, hayotni sug'urta qilish mukofotlari ko'rsatkichlari o'ta past, 21 million ishga yaroqli aholidan atiga 355 767 000 so'mlik ixtiyoriy sug'urta mukofoti yig'ilishi achinarli holat. Masalan MDH davlatlaridan biri Rossiya sug'urta bozorida hayot sug'urtasi segmenti allaqachon barqaror tarzda rivojlangan bo'lib, umumiy mukofotlar tarkibida 20-25% ulushni egallaydi. Qozog'istonda esa bu ko'rsatkich oxirgi yillarda 15% atrofida shakllanib, davlat qo'llovi bilan tobora ortib bormoqda. Demak, O'zbekistonda hayot sug'urtasi hali kichik ulushga ega bo'lib bu sohada katta islohatlar amalga oshirilishi zarur.

Sug'urta to'lovlari O'zbekistonda 11,6% ga o'sgan bo'lib, ixtiyoriy sug'urta segmenti yetakchilik qilmoqda. Rossiyada bu ko'rsatkich ko'proq majburiy sug'urta turlari hisobiga ta'minlanadi (avtomobil va tibbiy sug'urta asosiy ulushga ega). Qozog'istonda esa korporativ mijozlar hisobiga ixtiyoriy sug'urta turlari ustun kelmoqda.



Sug'urta majburiyatlari O'zbekistonda 44,6% ga o'sgan va bu kapitallashuv darajasining sezilarli kuchayishidan dalolat beradi. Rossiya bozorida sug'urta majburiyatlari yalpi ichki mahsulotga nisbatan 4% ni tashkil etsa, Qozog'istonda bu ko'rsatkich 2% atrofida.

XULOSA VA TAKLIFLAR:

O'zbekiston sug'urta bozorida o'sish tendensiyasi uzluksiz ravishda davom etmoqda. Sug'urta mukofotlari hajmidagi katta o'sish mamlakatda moliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabning oshib borayotganini ko'rsatadi. Bu esa aholining moliyaviy madaniyati va xatlarni boshqarishga bo'lgan munosabatida ijobiy o'zgarishlar borligidan dalolat beradi.

O'zbekiston sug'urta bozorida umumiy sug'urta va hayot sug'urtasi segmentlari o'rtasida katta farq mavjud bo'lib, umumiy sug'urta sohasi hali ham asosiy ulushni egallab turibdi. Hayot sug'urtasi juda sekin rivojlanmoqda hayot sug'urtasini rivojlanishi uchun davlat tomonidan keng miqyosdagi chora tadbirlar ishlab chiqarilishi zarur. Bu kelgusida bozor diversifikatsiyasi va yangi mahsulotlar paydo bo'lishiga sharoit yaratadi.

Sug'urta tashkilotlarini investisiya siyostiga rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib o'zgartirishlar kiritish lozim. Depozitlarga ortiqcha tayanchni kamaytirib, qimmatli qog'ozlar va infratuzilma loyihalariga investisiyalarni ko'paytirish zarur. Shuningdek sug'urta jamg'armalarini davlat obligatsiyalariga yo'naltirish orqali ichki moliya bozorini rivojlantirish va xalqaro tajribaga tayangan holda ESG-investisiyalarni joriy qilish, ayniqsa "yashil obligatsiyalar" bozorini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda sug'urta bozori hozircha Rossiya va Qozog'istonga nisbatan kichik hajmga ega, ammo o'sish potentsiali yuqori. Xususan, hayot sug'urtasi va korporativ ixtiyoriy sug'urta turlarini rivojlantirish orqali qisqa muddatda mintaqada raqobatbardosh milliy sug'urta bozorini tashkil etish mumkin.

O'zbekiston sug'urta bozorida hali katta salohiyat mavjud. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, raqamli sug'urta platformalarini rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish orqali bozor imkoniyatlarini yanada kengaytirish mumkin. Bu esa nafaqat moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlaydi, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli rivojiga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Outreville J. F. Life insurance markets in developing countries //Journal of risk and insurance. - 1996. - C. 263-278.
2. Mulhern J., Manske S., Mancuso R. USA: A regulatory overview of the world's largest insurance market //Research Handbook on International Insurance Law and Regulation. - Edward Elgar Publishing, 2023. - C. 708-727.
3. Xalikov U. R. O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI //Scientific Research and Experimental Development. - 2025. - №. 10.
4. Yuldashev O. T. et al. O 'ZBEKISTONDA SUG 'URTA BOZORI //Tadqiqotlar. – 2025. – T. 63. – №. 3. – C. 200-208.
5. "Sug'urta faoliyati to'g'risidagi qonun" 2022-yil 25-fevraldagi 730-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni.
6. Sh.M.Mirziyoyev "2020 - yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. 24.01.2020 - y . https://www.norma.uz/Axborot_huquqiy_portal.
7. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/demography-2>
8. <https://napp.uz/uz/pages/statistics-and-analysis-for-im> "O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorining 2025-yil II chorak yakunlari bo'yicha umumiy ko'rsatkichlari" Hisoboti.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>